



POLAND



POLAND

**TASAVVUF ALLOMALARI MEROSIDA MA'NAVYIY TARBIYA MASALALARI
(KARMANALIK ALLOMALAR MISOLIDA)****Quvonov Sardor Zokirovich**

Navoiy davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

quvonov2017@mail.ru

+998 93 963 18 80

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20961536>

Annotatsiya. Maqolada islom ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lmish tasavvuf ta'limotining ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimi sifatidagi mohiyati Karmana (Quyi Zarafshon) vohasida faoliyat yuritgan Yassaviya tariqati allomalari merosi misolida tahlil etiladi. Tadqiqot Markaziy Osiyo o'rta asr tasavvufining noyob birlamchi manbalari — Muhammad Olim Shayx Azizonning «Lamahot min nafahot ul-quds» hamda Mavlono Sayyidning «Manoqibi Shayx Xudoydod Valiy» asarlari asosida olib borilib, ularda aks etgan ruhiy poklanish, mehnat tarbiyasi, ijtimoiy mehr-shafqat, ekologik ong, ilmu ma'rifat va millatlararo hamjihatlik g'oyalarining bugungi ma'naviy taraqqiyot uchun ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *tasavvuf, ma'naviy tarbiya, Karmana, Yassaviya tariqati, Xoja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Hojagon-Naqshbandiya, «Lamahot», Olim Shayx Azizon, Shayx Xudoydod Valiy, Hazrat Qosim Shayx, zikr, komil inson.*

Аннотация. В статье сущность суфийского учения как целостной системы духовно-нравственного воспитания раскрывается на примере наследия шейхов братства Йассавийа, действовавших в оазисе Кармана (Нижний Зеравшан). Исследование опирается на уникальные первоисточники средневекового центральноазиатского суфизма — сочинения «Ламахат мин нафахат ал-кудс» Мухаммада Олима Шайха Азизона и «Манакиб-и Шайх Худайдад Вали» Мавляна Сайида, — в которых отражены идеи духовного очищения, трудового воспитания, социального милосердия, экологического сознания, просвещения и межнационального согласия, сохраняющие своё значение для современного духовного развития.

Ключевые слова: *суфизм, духовное воспитание, Кармана, братство Йассавийа, Ходжа Ахмад Йассави, Наджмуддин Кубра, Ходжаган-Накшбандийа, «Ламахат», Олим Шайх Азизон, Шайх Худайдад Вали, Хазрат Касим Шайх, зикр, совершенный человек.*

Abstract. The article examines Sufism as an integral system of spiritual and moral education through the legacy of the Yasawiyya shaykhs who were active in the Karmana (Lower Zarafshan) oasis. The study is based on rare primary sources



POLAND



POLAND

of medieval Central Asian Sufism — “Lamahat min nafahat al-quds” by Muhammad Olim Shaykh Azizon and “Manaqib-i Shaykh Khudaydad Wali” by Mawlana Sayyid — and reveals their ideas of inner purification, labour education, social compassion, ecological awareness, learning and interethnic harmony, which retain their relevance for contemporary spiritual development.

Key words: *Sufism, spiritual education, Karmana, Yasawiyya order, Khoja Ahmad Yasawi, Najmuddin Kubra, Khwajagan-Naqshbandiyya, “Lamahat”, Olim Shaykh Azizon, Shaykh Khudaydad Wali, Hazrat Qasim Shaykh, dhikr, the perfect human.*

Kirish

Milliy va diniy qadriyatlar asrlar davomida bir-biri bilan chambarchas bogʻlangan holda shakllanib, xalq maʼnaviy olamining ajralmas oʻzanini tashkil etgan. Islom maʼnaviyatining teran qatlami sanalgan tasavvuf taʼlimoti esa bu jarayonda alohida oʻrin egallab, dinni qalban anglash, axloqiy kamolotga undash hamda ilm-maʼrifatni rivojlantirishda oʻziga xos maktab vazifasini bajargan. Insonning ruhiy-axloqiy poklanishi va ilohiy muhabbat orqali maʼnan yuksalishi gʻoyasini markazga qoʻygan ushbu taʼlimot haqiqat talabida yurgan kishilar qalbiga yoʻl topib, ozodlik, poklik va boqiy hayot haqidagi orzularni badiiy-falsafiy tarzda ifoda etib keldi.

XII–XVI asrlarda Markaziy Osiyoda shakllangan Yassaviya, Kubroviya va Hojagon-Naqshbandiya tariqatlari mintaqaning ijtimoiy-siyosiy va maʼnaviy hayotiga sezilarli taʼsir koʻrsatdi. Bu tariqatlar mahalliy urf-odat va madaniyatni islomiy anʼanalar bilan uygʻunlashtirgani, jamiyatda axloqiy meʼyorlarni mustahkamlagani hamda siyosiy hayotda yetakchilik maqomiga koʻtarilgani bilan ajralib turadi. Shu maʼnoda tasavvuf nafaqat diniy-falsafiy taʼlimot, balki butun bir maʼnaviy tarbiya tizimi sifatida namoyon boʻladi: u inson qalbini tarbiyalash, jamiyatni axloqan yetuklashtirish va davlat boshqaruviga maʼnaviy mezon kiritishga qaratilgan.

Ushbu maqolada tasavvufning maʼnaviy tarbiya bilan bogʻliq qirralari Karmana (Quyi Zarafshon) vohasida faoliyat yuritgan allomalar merosi misolida tadqiq etiladi. Tadqiqotning ilmiy-amaliy dolzarbligi shundaki, ushbu hududda yashagan Yassaviya shayxlari merosi mahalliy birlamchi manbalar asosida hozirgacha yetarlicha yoritilmagan. Holbuki, bu manbalarda mujassam boʻlgan mehnatsevarlik, mehr-shafqat, ekologik ong, ilmu maʼrifat va millatlararo bagʻrikenglik gʻoyalari bugungi maʼnaviy yangilanish jarayoni uchun ham nazariy, ham tarbiyaviy qadriyatga ega.



Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Tasavvufning kelib chiqishi va mohiyati xususida ilmiy adabiyotda turlicha qarashlar mavjud. Usmon Turar tadqiqotlarida ta'limotning paydo bo'lish tarixi va «so'fiy» nomining etimologiyasiga oid qarashlar batafsil izohlanadi¹. Ingliz sharqshunosi Martin Lings esa «Tasavvuf nima?», «So'fiylar nimaga e'tiqod qiladi?» degan savollarga javob izlab, uni Ollohga o'zini topshirish va e'tiqod dengiziga g'arq bo'lish sifatida ta'riflaydi².

N. Komilovning ta'kidlashicha, tasavvuf tadrijiy taraqqiyotga ega ta'limot bo'lib, islom olamida VIII asr o'rtalarida, dastlab zohidlik (tarki dunyo, taqvodorlik) ko'rinishida shakllangan³. Ta'limot avval Iroq — Kufa, Bag'dod, Basra hamda Misr kabi hududlarda yuzaga kelib, XI–XII asrlarga kelib Markaziy Osiyoda mustaqil Yassaviya, Kubroviya va Hojagon-Naqshbandiya tariqatlari ko'rinishida o'zanga tushdi⁴.

Markaziy Osiyo tasavvufi bevosita mashhur mutasavvif Xoja Yusuf Hamadoniy (1048–1141) nomi bilan bog'lanadi; uning shogirdlari Xoja Ahmad Yassaviy va Abdulxoliq G'ijduvoniy (vaf. 1179) ikki mustaqil tariqatga — Yassaviya-jahriya va Hojagon-Naqshbandiyaga asos soldi. Xorazmda esa «Valiytarosh» unvoni bilan mashhur Najmiddin Kubro (1145–1221) tomonidan Kubroviya tariqati shakllandi⁵. Shayx Najmiddin Kubro va Kubroviya g'oyalari mohiyati xususida Z. Ishoqovanning tadqiqotlarida batafsil ma'lumot beriladi⁶. Qodiriya tariqatiga mansub shayxlarning mintaqadagi faoliyatiga oid ma'lumotlar ham bir qator olimlarning asarlarida keltirib o'tilgan⁷.

Karmanalik shayxlar merosini o'rganishda asosiy o'rin tutgan «Lamahot min nafahot ul-quds» asarining ilmiy ahamiyati va Yassaviya tarixini yoritishdagi

¹Усмон Турар. Тасаввуф тарихи. – Т.: Истиқлол, 1999. – Б. 21.

²Martin Lings. What is Sufism? – Lahore (Pakistan), 1999. – P. 6.

³Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Мовароуннахр, 2009. – Б. 9.

⁴О. Усмон. Бухорои шарифнинг етти пири. – Т.: Тош ДШИ нашриёти, 2003. – Б. 5.

⁵Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. Таржимон ва нашрга тайёрловчилар: И. Ҳаққул ва А. Бектош. – Т.: Мовароуннахр, 2004. – Б. 3.

⁶Исҳоқова З. Шайх Нажмиддин Кубро. – Т.: Ўзбекистон, 2013. – 136 б.; Яна қаранг: Исҳоқова З. Тасаввуф таълимотида валийлик тушунчасининг диний-фалсафий талқини (Алишер Навоийнинг «Насойим ул-муҳаббат» асари асосида). Фал. фан. ном. ... автореф. – Т., 2007. – 25 б.

⁷Остонақулов И. Авлиёлар Султони, Туронлик валийлар. – Т.: Янги аср авлоди, 2004. – 255 б.; Унинг ўзи. Муҳаммад Сиддиқ Рушдий «Тазкирату-л-авлиё» асарининг шарқ агиографик манбаларини ўрганишдаги аҳамияти. Дисс. автореф. Тарих фан. док. – Т., 2010. – 47 б.



POLAND



POLAND

qiymati E. Karimov⁸, N. Hasanov⁹ hamda rus sharqshunosi N. D. Mikluxo-Maklay¹⁰ tadqiqotlarida alohida ta'kidlangan. Shayx Xudoydod Valiy merosi va undan keyingi davr Yassaviya an'analari esa M. Ismoilov¹¹ hamda A. Fitrat¹² ishlarida tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqotlar mavzuning ilmiy zaminini tashkil etsa-da, Karmana vohasi allomalarining ma'naviy-tarbiyaviy merosi yaxlit, manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinmagani ushbu maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot tarixiylik va manbashunoslik tamoyillariga tayanadi. Asosiy e'tibor birlamchi manbalarni — «Lamahot min nafahot ul-quds» hamda «Manoqibi Shayx Xudoydod Valiy» asarlarini matniy tahlil qilishga qaratilgan. Ulardagi ma'lumotlar tarixiy-qiyosiy, germeneytik (matn talqini) hamda tizimli-tahliliy yondashuvlar yordamida sharhlanadi; agiografik (manoqib) janrining o'ziga xos xususiyatlari, manbalardagi rivoyat va iqtiboslarning ishonchlilik darajasi qiyosiy usulda baholanadi. Bu yondashuv allomalar merosidagi ma'naviy-tarbiyaviy g'oyalarni nafaqat tarixiy hodisa sifatida tavsiflash, balki ularning falsafiy-axloqiy mohiyatini ochib berish imkonini yaratadi.

Tahlil va natijalar

Tasavvuf — ma'naviy tarbiya tizimi sifatida

O'rta Osiyo jamiyatida tasavvuf tariqatlari o'ziga xos mafkuraviy omil sifatida namoyon bo'lib, an'ana va udumlarga kuchli ta'sir o'tkazgan. Ayni paytda bu ta'limot o'ta murakkab va ko'pqirrali bo'lgani bois turli davrlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari ta'sirida muayyan o'zgarishlarga uchragan. Tasavvuf shayxlari xalqning ma'naviy-ruhiy madadkori sifatida maydonga chiqib, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotni rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan; ularning karomatlari, so'zlari va siyratu surati xalq ongida yuksak axloq hamda ilohiy poklik namunasi sifatida qabul qilingan. Aynan shu jihat tasavvufni mavhum diniy

⁸Каримов Э. Э. Йассавийа и Ходжаган Накшбандийа: история действительная и вымышленная. — Т.: Ўзбекистон, 2000. — Б. 21.

⁹Ҳасанов Н. Муҳаммад Олим Сиддикий ва унинг «Ламаҳот мин нафаҳоти-л-қудс» асари ҳақида // Имом ал-Бухорий сабоқлари. — 2006. — № 3. — Б. 196.

¹⁰Миклухо-Маклай Н. Д. Описание таджикских и персидских рукописей. Вып. 2. Биографические сочинения. — М., 1961. — С. 134.

¹¹Исмоилов М. Шайх Худойдоднинг «Баҳр ал-улум» асари Марказий Осиёда тасаввuf тарихига оид муҳим манба (XVIII асрнинг иккинчи ярми). Тарих фан. ном. дисс. ... автореф. — Т., 2006. — Б. 19.

¹²Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. II жилд. Илмий асарлар. — Т.: Маънавият, 2000. — Б. 36.



oqim emas, balki amaliy ma'naviy tarbiya maktabi sifatida tushunishni taqozo etadi.

Tadqiqot obyekti — Karmanalik shayxlar bevosita Yassaviya tariqatiga mansub bo'lgani bois asosiy e'tibor ushbu silsilaga qaratiladi. Yassaviya murshidlari barcha tariqatlarga xos umumiy maqomlarni (shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat) bosib o'tish bilan birga o'ziga xos qoidalarga ham amal qilgan. Xususan, bu tariqatda kalima va duolarni baland ovozda — jahriy uslubda aytish muhim o'rin tutgani uchun u «Yassaviya-jahriya» deb ataladi. Tariqat asoslarini ishlab chiqish va ilohiy haqiqatlarni el orasida yoyish maqsadida bir qancha risola va tazkiralar bitilgan; ana shunday noyob manbalardan biri «Lamahot min nafahot ul-quds» asaridir¹³.

«Lamahot» — Yassaviya tarixining noyob manbasi va Olim Shayx Azizon merosi

Asarning ilmiy qimmati shundaki, u Karmanalik Yassaviy shayxlarining hayoti va faoliyati to'g'risida keng ma'lumot beruvchi asosiy manba bo'lib, unda Qosim Shayx Azizon hamda Shayx Xudoydod avlodlari haqida boshqa manbalarda uchramaydigan dalillar aks etgan. Asar muallifi Shayx Xudoydodning yaqin xalifalaridan bo'lib, unga qarindoshlik rishtalari bilan bog'langani manbaning ishonchliligini oshiradi. Sharafuddin Roqimiy «Tarixi tom»da ham bu manba ishonchliligini ta'kidlab, Olim Shayx Xudoydod maqomotlarini to'g'ri yozgani haqida guvohlik beradi¹⁴.

Keng ilmiy jamoatchilikda qisqacha «Lamahot» nomi bilan mashhur asar taniqli Yassaviya shayxlaridan Muhammad Olim Shayx Azizon ibn Mo'min Shayx ibn Darvesh Shayx Azizon qalamiga mansub. Muallif nasab jihatidan ota tomonidan Abu Bakr Siddiq (r.a.)ga, ona tomonidan alaviylarga borib taqaladi. Asarning Yassaviya tarixi, g'oyalari va tariqat vakillari faoliyatini ifodalovchi muhim manba ekanligini E. Karimov ham e'tirof etadi¹⁵.

Muhammad Olim Shayx markaziy hokimiyat uchun kurashlar avjiga chiqqan bir davrda — 1564 yili Toshkentda tug'ilgan. Ma'lumki, Abdullaxon II hokimiyatni markazlashtirish maqsadida qator harbiy yurishlar olib borib, 1573 yili Balx, 1574 yili Hisor, 1578 yili Samarqand, 1584 yili Badaxshonni, 1582 yilgi yurishda esa Toshkentni zabt etgan. Shu davrda Olim Shayxning otasi oilasi bilan

¹³Муҳаммад ал-Олим ас-Содиқ ал-Алавий – Олим Шайх. (القدس نغحات من لمحات) Ламаҳот мин нафаҳот ул-қудс. ЎзФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси. Инв. № 495, 2671. 288 б.

¹⁴Шарафуддин Роқимий. Тарихи томм. – Т.: Маънавият, 1998. – Б. 85.

¹⁵Каримов Э.Э. Йассавийа и Ходжаган Накшбандийа: история действительная и вымышленная. Т.: Ўзбекистон, 2000. –Б. 21.



POLAND



POLAND

Samarqandning Aliobod mavzeiga ko'chib o'tadi. «Hujjat ul-zokirin» asarida bu ko'chish Toshkent viloyatidagi kelishmovchiliklar bilan izohlanadi¹⁶.

Olim Shayx «Lamahot»da o'z nasabini batafsil keltiradi: Muhammad Olim Siddiqiy Alaviy ibn Mo'min Shayx ... ibn Shayxulislom Abu Hafs Shahobuddin So'hravardiy silsilasi orqali o'n uch vosita bilan Abu Bakr Siddiq (r.a.)ga ulanadi. Ona tomonidan bobosi esa Hofiz Toshkandiy (Sulton Muhammad Toshkandiy)¹⁷ bo'lib, u ham Abu Bakr Siddiq (r.a.) naslidan sanaladi¹⁸. Otasi tomonidan bobosi Darvesh Shayx (vaf. 1551–52) esa Karmanalik Shayx Xudoydodning yaqin xalifalaridan bo'lib, Toshkent va Samarqandda tariqat ahli orasida nufuzli edi; u Toshkentda jome masjid, Shayx Xudoydod mozorida hovuz va bog' barpo etgan¹⁹.

Olim Shayx Azizonning silsilasi Ahmad Yassaviyga ulanishi ko'plab manbalarda tasdiqlanadi. Abu Tohirxo'ja «Samariya»da uning ustozlari Pirim Shayx Azizon, undan yuqorida esa Karmanalik Qosim Shayx Azizon, Shayx Xudoydod Azizon turishini va silsila tariqat sultoni Xoja Ahmad Yassaviyga borib taqalishini ko'rsatadi²⁰. Hazrat Olim Shayx Imomquli Bahodirxon davrida Samarqandda a'lam vazifasida faoliyat yuritib, Mirzo Ulug'bek madrasasi yaqinida oliy xonaqoh barpo qildirgan; «Samariya» muallifi uning Aliobodda jome masjid, xonaqoh va madrasa qurganini hamda shia mazhabiga qarshi «Dar raddi mazhabii shia» risolasi borligini qayd etadi²¹. Manbalarda uning vafoti hijriy 1041/1631–1632 yillar deb ko'rsatiladi²².

Olim Shayx fiqh, tafsir, hadis, tarix va tasavvuf ilmlarini mukammal egallab, «olim ba hammai ulum» (barcha ilmlar sohibi) unvoniga sazovor bo'lgan. U ashtarxoniy hukmdori Imomqulixon (1611–1642) davrida katta nufuzga ega bo'lib, ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotda faol qatnashgan. Murshid sifatida nazariy va amaliy faoliyat olib borib, No'g'ay ota, Mavlono Oxund, Xoja Abdurashid, Xoja Fatxulloh Azizagiy, Muhammad Solih Urganjiy kabi ko'plab

¹⁶حجة الزاكرين. Мухаммад Шариф ал-Хусайний ал-Алавий Бухорий томонидан 1090/1679 йилда ёзилган қўлёзма. ЎзФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси. Инв. № 2667. 1086-бет.

¹⁷Хофиз Қўҳакий (ваф. 1584 й.) – XVI асрда яшаган машҳур олим ва муфассир. Али Қушчининг набираси.

¹⁸Ламаҳот. – Б. 144.

¹⁹Ламаҳот. – Б. 144.

²⁰Абу Тоҳирхожа Самарқандий. Самария (Самарқанд мазорлари зикри). Форс тилидан А. Сатторий таржимаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 170.

²¹Абу Тоҳирхожа Самарқандий. Самария (Самарқанд мазорлари зикри). Форс тилидан А. Сатторий таржимаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 170.

²²Уша асар – Б. 170.



POLAND



POLAND

shogird tayyorlagan²³. Uning «Risolai manoqib» asari «Lamahot»ning Sankt-Peterburg nusxasi tarkibiga kiritilgan²⁴.

Muallif «Lamahot»ni 1033/1624 yili yozib tugatgan va uni Xoja Ahmad Yassaviyning ma'naviy ishorasi bilan qalamga olganini ta'kidlaydi. Asarni Yassaviya shayxlari haqida yozishga Payg'ambar (s.a.v.)dan ham inoyat bo'lganini qayd etadi²⁵. Tuzilishi jihatidan asar agiografik (manoqib) janriga mansub bo'lib, Mikluxo-Maklay uni Hojagon-Naqshbandiyaga oid «Rashohot ayn ul-hayot» bilan qiyoslaydi²⁶.

Asar muqaddima va ikki bobdan iborat. Birinchi bob jahriy zikrning shariatga muvofiqligini isbotlovchi oyat va hadislarini, «Qur'oni karim»²⁷, «Al-Kashshof»²⁸, «Jome as-sahih»²⁹ hamda «Fatavoi Totorxoniy»³⁰ kabi asarlardan dalillarni keltiradi. Ikkinchi bob esa Jahriya (Yassaviya) silsilasi a'zolarining odat va irodatlariga bag'ishlangan bo'lib, unda Xoja Ahmad Yassaviydan to muallif davrigacha bo'lgan mashoyix tarixi hikoya qilinadi.

Muallif asarning ikki maqsadini e'tirof etadi: birinchisi — jahriy zikr mohiyatini ilmiy dalillar bilan isbotlash. U Javhariyning «Sahih»idan, Faxriddin Roziyning «Tafsiri kabir»idan hamda «Kashshof» va Qozi Bayzoviy asarlaridan jahr ovozni baland aytishni anglatishini dalil sifatida keltiradi³¹ va «Haqni botilga aralashtirmanglar...» oyatiga³² tayanib, jahriy zikrni man etgan kishini zolimlar qatoriga qo'shadi. Ikkinchi maqsad — Yassaviya ulug'larining maqom va

²³ Хасанов Н. Мухаммад Олим Сиддикий ва унинг “Ламаҳот мин нафаҳоти-л-қудс” асари ҳақида.// Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2006, №3-сон, -Б.196.

²⁴Қаранг: Персидские и таджикские рукописи Института народов Азии АН СССР / ред. Акимушкин О. Ф., Кушев В. В. и др. – Москва, 1964. – С. 282.

²⁵Ламаҳот. – Б. 7.

²⁶Миклухо-Маклай 1035/1625–26 йил деб кўрсатади. Миклухо-Маклай Н. Д. Описание таджикских и персидских рукописей. Вып. 2. – М., 1961. – С. 133.

²⁷610–632 йиллар давомида Пайғамбаримиз Мухаммад (с.а.в.) (571–632)га Оллоҳ томонидан нозил қилинган муслмонларнинг муқаддас китоби.

²⁸Маҳмуд аз-Замахшарий (1075–1144) томонидан 1134 йилда ёзилган тафсир илмига оид асар.

²⁹Имом ал-Бухорий (Мухаммад ибн Исмоил ал-Бухорий, 810–870) томонидан ёзилган, 7275 та ҳадисни ўз ичига олган асар.

³⁰Фарийдуддин Олим Дехлавий (вафоти – 786) томонидан ёзилган ҳанафийлик илми ва фикҳига оид асар.

³¹Ламаҳот. – Б. 9.

³²Қуръони карим, «Бақара» сураси, 42-оят.



POLAND



POLAND

karomatlarini, «kalimoti qudsiya»larini yoritish bo'lib, bayon Xoja Ahmad Yassaviy ta'rifidan boshlanadi³³.

Asar Yassaviyadan tashqari boshqa tariqatlar tarixi, piru murshidlar haqida ham ma'lumot beradi hamda ko'plab tarixiy toponimlarni tiklash imkonini yaratadi. Manba an'anaviy ravishda Xoja Ahmad Yassaviy hayoti bayoni bilan ochilib, muallifning ajdodlari va piru ustozlari — Qosim Shayx hamda Pirim Shayx Azizonlar tarixi bilan yakunlanadi. Olim Shayx ayniqsa Shayx Xudoydod Valiy haqida to'liqroq ma'lumot berishga intiladi, zero uni o'z piri deb biladi. Asarda Hojagon-Naqshbandiya peshvosi Mahdumi A'zam Dahbediy, Shayx Xudoydod Valiy va Kubroviya vakili Shayx Mahdumi Xorazmiy o'rtasidagi suhbatlarga alohida e'tibor qaratilgan.

«Lamahot»da Ahmad Yassaviyning tariqat amaliyotiga oid, boshqa manbalarda uchramaydigan rivoyatlar ham bor. Asarda Hakim ota, So'fiy Muhammad Donishmand, Zangi ota, Sayyid ota, Xoja Ismoil ota kabi suluk vakillari hamda Mavlono Ismatulloh, Shayx Jamoliddin, Shayx Xudoydod, Qosim Shayx, Pirim Shayx singari zamondosh shayxlar haqida muhim ma'lumotlar keltiriladi. Faqr, tavakkul, tafakkur, irodat, futuvvat, ishq, tasfiya, zikr, riyozat, ilmi laduniy, fano, tavhid, baqo kabi tasavvufiy tushunchalar esa keng talqin qilinadi — bu jihat asarni ma'naviy tarbiyaning nazariy qo'llanmasiga aylantiradi.

Asar shayx va hukmdor, shoh va darvesh munosabatlariga oid ko'plab tarixiy faktlarga ham boy. Muhammad Shayboniyxon, Mirzo Bobur, Abulxayrxon, Ubaydullaxon, Iskandarxon, Abdullaxon II kabi hukmdorlarning Yassaviya shayxlari bilan yaqin munosabatlari keng yoritilgan bo'lib, bu ma'lumotlar tarixshunoslik uchun qimmatli manba sanaladi. Bundan tashqari Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Mahdumi A'zam Kosoniy, Xoja Bahouddin Naqshband singari mutasavvif adiblar ijodidan namunalar ham keltirilgan.

Manbada Yassaviya arboblarning, ayniqsa, Naqshbandiya shayxlari bilan munosabatlariga doir ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Buning yorqin misoli — Shayx Xudoydodning Mahdumi A'zam Dahbediy bilan muloqoti bo'lib, ikki ulug' zotning «zohir va botin ilmida hamsuhbat» ekani, bir-birini o'z uyiga taklif etishi va ma'rifat majlisi tafsilotlari bayon qilinadi³⁴. Bu kabi muloqotlar tariqatlar o'rtasidagi o'zaro hurmatni hamda e'tiqod yagonaligi va ijtimoiy hayotda maqsad birligini ko'rsatishga qaratilgan namuna edi.

³³ Ламаҳот. – Б. 23.

³⁴ Ламаҳот. – Б. 99.



Manbada uch tariqat — Yassaviya, Kubroviya va Hojagon-Naqshbandiya vakillarining hamjihatligi alohida ta'kidlanadi. Mahdumi A'zam, Shayx Mahdumi Xorazmiy va Shayx Xudoydod Valiy bir davrda yashab, o'zaro do'stlik va ilmiy munozaralar olib borgan. «Lamahot»da uchovi jamlangan oliy majlis tafsiloti — har biri o'z tariqatiga ko'ra zikr ado etgani, qolgan ikkisi esa hurmat yuzasidan tik turib tinglagani — yorqin tasvirlangan³⁵. Ismoil ota bilan Xoja Ubaydulloh Ahror munosabatlari³⁶ hamda Shayx Xudoydodning Buxoroda Xoja Islom Jo'yboriyga «zikri arra»ni talqin etgani³⁷ ham shu hamjihatlikning dalilidir. Shu bilan birga, keyingi asrlarda — XVII–XVIII asrlarda Buxoroda tariqatlar o'rtasida zikr usuli yuzasidan ziddiyatlar kelib chiqqani manbalarda qayd etiladi³⁸.

N. D. Mikluxo-Maklay «Lamahot»ni nafaqat Yassaviya, balki Kubroviya va Naqshbandiya tarixini hamda mashhur vakillar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishda o'ziga xos ahamiyatga ega manba deb baholaydi³⁹. Asarning bir nusxasini keyinchalik Olim Shayxning xalifasi Hoja Fathulloh 1636 yilda to'ldirib qayta ko'chirgan⁴⁰. Umuman, «Lamahot» XVI asr Markaziy Osiyosi diniy-siyosiy hayoti, Yassaviya shayxlarining jamiyatdagi o'rni hamda tarixiy toponimika uchun bebaho manba sifatida baholanadi.

«Manoqibi Shayx Xudoydod Valiy» va ma'naviy-axloqiy tarbiya

Shayx Xudoydod Valiy merosini yorituvchi yana bir muhim manba — uning yaqin xalifasi Mavlono Sayyid tomonidan XVI asrda bitilgan «Manoqibi Shayx Xudoydod Valiy» asaridir. Asl nusxadan Muhammad Ashur ibn Nurmuhammad 1912 yili nasta'liq xatida ko'chirgan nusxa bugun Shayx avlodlaridan biri, professor Saidmaqsud Razzoqovning shaxsiy kutubxonasida saqlanadi⁴¹. 247 varaqdan iborat asar asosan fors tilida bo'lib, unda turkiy va arabiy jumlar ham

³⁵Ламаҳот. – Б. 100.

³⁶Ламаҳот. – Б. 64.

³⁷Ламаҳот. – Б. 112.

³⁸ Исмоилов М. Шайх Худойдоднинг “Баҳр ал-ўлум” асари Марказий Осиёда тасаввуф тарихига оид муҳим манба(XVIII асрнинг иккинчи ярми). Тарих фан.ном.дисс.автореф. Т.: 2006. –Б.19.

³⁹ Н.Д. Миклухо-Маклай. Описание таджикских и персидских рукописей. Выпуск 2. Биографические сочинения. – М.: 1961. – с. 134

⁴⁰Миклухо-Маклай Н. Д. Описание таджикских и персидских рукописей. Вып. 2. Биографические сочинения. – М., 1961. – С. 136.

⁴¹Тадқиқот давомида С. Раззоқов билан бир неча бор шахсан учрашиб, суҳбат қилишга муваффақ бўлинди. Шайх Худойдод Валийнинг авлодлари шажараси ва бугунги авлодлари ҳақида қимматли маълумотлар олинди. Шунингдек, «Маноқиб»нинг асл нусхаси билан танишиб чиқилди. Асар филология фанлари номзоди Сайфуддин Сайфуллоҳ томонидан ўзбек тилига таржима қилиниб, Ҳазрат таваллудининг 555 йиллиги муносабати билан 2017 йили «Улуғ авлиё Шайх Худойдод Вали» номи билан «Ўзбекистон» нашриётида чоп этилди.



POLAND



POLAND

uchraydi; sahifalar bezaksiz ko'chirilgani uni biror ixlosmand qo'li bilan bitilgan deb taxmin qilishga asos beradi.

Matn ichida Shayx Xudoydod Valiyning saj, bayt, hikmat, g'azal, naql va hikoyat sarlavhalari ostida turkiy va forsiy tillarda yozgan badiiy namunalari keltiriladi. Bu dalillar Shayxning she'riyat bilan jiddiy shug'ullangani, o'tmish va zamondosh shoirlar ijodidan xabardor bo'lgani hamda o'z qarashlarini nazm shaklida ifodalaganini ko'rsatadi. Abdurauf Fitrat uni «zullisonayn shoir» deb ta'riflagani ham bejiz emas⁴². Shayxning g'azallari asosan aruz vaznida bitilgan bo'lib, alohida devoni haqida ma'lumot uchramasa-da, she'rlari «Manoqib» tarkibida saqlanib qolgan.

Asarda Shayx Xudoydodning ma'naviy yo'liga oid ramziy etiroflar ham bor. U G'ijduvonda o'qigan paytida uch yil bir po'stin bilan kun kechirgani, tanqisligini hech kimga aytmay sir tutgani, zero «oshiqning kuyishi va buni sir tutishi yaxshi» ekanini bayon qiladi⁴³. Ushbu etirofdan uch ma'no anglashiladi: uch yillik po'stin — tariqatni qunt bilan o'rgangani; ko'ylak yoqasini bo'yniga ilishi — yo'lda sobitqadamligi; tanqislikni yashirishi esa tasavvufdagi o'zni oshkor etmaslik odobiga sodiqligini ifodalaydi.

Shayx Xudoydod Valiy hayoti davomida mol-dunyo to'plashga intilmagan; uning nazarida boylik o'tkinchi bo'lib, Allohning vasliga yetishish uchun dunyo ne'matlaridan voz kechish afzal edi. Bu qarash uning she'rlarida ham aks etgan:

*Bor jonin tark aylabon, istab seni topsa bo'lur,
Jumlaning hubbin qo'yubon, ham seni sevsa bo'lur!
Sensizin nega kerak, bu tanda jonim bir zamon,
Sen bilan dunyovu uqbo har nekim desa bo'lur!*

44

Shu bilan birga, Shayx Xudoydod faoliyatida an'anaviy Yassaviya tarki dunyochiligidan farqli ravishda jamiyat hayotiga faol aralashish kuzatiladi. Bu hodisa XV–XVI asrlarda Yassaviylikning ijtimoiy mazmunidagi muhim o'zgarishni — ma'naviyatni amaliy faollik bilan uyg'unlashtirish tamoyilini ko'rsatadi.

Mehnat, mehr-shafqat va ekologik tarbiya g'oyalari

⁴³Улуғ авлиё Шайх Худойдод Вали (Маноқиб). Форс тилидан Сайфуддин Сайфуллоҳ таржимаси. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 53.

⁴⁴«Маноқиб». – Б. 76.



POLAND



POLAND

Shayx Xudoydod oddiy xalqni halol mehnatga chorlab, atrofiga odamlarni to'plagan va bo'sh yotgan yerlarni o'zlashtirishga harakat qilgan. U dehqonchilikni «janobi hazrat Xudovandga tavakkal qilgandan keyin» o'zi uchun lozim topganini, hosil qilingan qovunlarni vaqf etishni niyat qilganini bayon etadi⁴⁵. Bu ma'lumotlar Shayxning faoliyatida uch maqsad — bo'sh yerlarni obod qilish, insonni mehnat orqali ham ma'nan, ham jisman tarbiyalash hamda jamiyatga moddiy manfaat keltirishni nazarda tutganini ko'rsatadi.

Manbada Shayxning ekologik ong va atrof-muhit tozaligiga oid ko'rsatmalari ham aks etgan. U do'stlariga paxta dalasini begona o'tlardan tozalash, ariq qazish va ko'chalarni najosatdan pok tutishni buyurgan⁴⁶. Bu fikrlar tahlilidan ikki muhim xulosa kelib chiqadi: birinchidan, mehnatkash xalqimiz XVI asrda ham paxtachilikda katta tajribaga ega bo'lgani va bu jarayonda tasavvuf vakillari faol qatnashgani; ikkinchidan, bugun butun insoniyat uchun dolzarb bo'lgan ekologik tarbiya va atrof-muhitni asrash g'oyalari ajdodlarimiz merosida ham mavjud bo'lgani oydinlashadi.

Muhtojlarga yordam berishni Shayx Xudoydod o'zining asosiy burchi deb bilgan. U Karmanada bir do'stining ming tangadan oshiq qarzini uzish uchun o'zining va oilasining ro'zg'or anjomlarini, kiyimlarini baholab, tushgan pulni qarzdorlarga bergani haqida hikoya qiladi⁴⁷. Yana bir voqeada u yo'lda duch kelgan yalang'och bolalarga o'z kiyimini, do'stlariga esa ularning kiyimlarini berishni buyurgan⁴⁸. Shayx nafaqa va oziq-ovqatni avvalo och qolgan, nochor ayol-bolalar va mayib-majruhlarga ulashishni joriy etgan. Bu jarayonlar uning kambag'alparvarligini, o'zgalar manfaatini o'zidan ustun qo'yganini ko'rsatib, bugungi davlatimiz ijtimoiy siyosatining «aholini kuchli ijtimoiy himoya qilish» tamoyili bilan mantiqan uyg'unlashadi.

Shayx muttahamlik va o'g'irlik kabi illatlarga qarshi turib, o'z dargohiga makruh va jinoiy ish bilan shug'ullanuvchilarni yo'latmagan. Asar muallifi «ozar, turk, fors, arabu ajam Hazrati Eshon oldida teng edi» deb yozadi⁴⁹. Bu — millati va e'tiqodidan qat'i nazar barchaga teng munosabat — bugungi mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlashga qaratilgan davlat

⁴⁵«Маноқиб». – Б. 78.

⁴⁶«Маноқиб». – Б. 47.

⁴⁷«Маноқиб». – Б. 26.

⁴⁸«Маноқиб». – Б. 28.

⁴⁹«Маноқиб». – Б. 52.



POLAND



POLAND

siyosatining tarixiy ildizlaridan biri sifatida asrlar davomida xalqimiz fazilatini namoyon etib kelmoqda.

Ilm, ma'rifat va komil inson tarbiyasi

Shayx Xudoydod tariqatda shogird tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib, ma'rifat bosqichini eng muhimi deb bilgan. U shogirdlariga sahih hadislardan va Qur'on oyatlaridan saboq bergan, mushohada uslubini muhim sanagan. «Manoqib»da u ko'chmanchi aholining o'troqlashuvi sharoitida savodxonlik darajasidan kuyinib: «...nima uchun o'troq bo'layotgan xalqlar orasida donishmandlar yo'q» deya nadomat chekadi⁵⁰. U shogirdlariga «olimlik — bu amaliyot bilan ilmning birlashmasi» ekanini uqtirib, ham nazariy, ham amaliy mashg'ulotlar olib borgan.

Shayx talabalarni doimo odamlar orasida bo'lishga undagan: «kishi odamlardan xoli bo'lsa, holi zaif va ishlari nomaqbuldir... irshodlikka loyiq emas» deb ta'kidlagan⁵¹. Bu qarash xalqdan ajralib xilvatni ixtiyor etgan ayrim shayxlar dunyoqarashidan farq qiladi va Payg'ambar (s.a.v.) sunnatiga⁵² hamohangdir. Aynan shu yo'ldan — xilvat orqali ruhiy ehtiyojni qondirish va jamoat ichida elga foyda keltirishni birlashtirishdan — Bahouddin Naqshband ham borgan⁵³. Demak, Shayx Xudoydod faoliyatida Naqshbandiya tarbiya usullarining Yassaviyaga joriy etilgani ko'rinadi — bu Yassaviyshunoslikda yangi, o'ziga xos qarashni ifodalaydi.

Zikr ta'limoti va ruhiy kamolot

Yassaviya vakili sifatida Shayx Xudoydod zikr xususida o'ziga xos qarashga ega edi. U uch xil zikrni qo'llab-quvvatlaydi: til zikri — avom (oddiy xalq) zikri; dil zikri — xoslar zikri; sir zikri — xoslar xosining zikri. Uning ta'kidlashicha, kishi tilda zikr aytsa, dilini ham hozir qilishi, sirini Xoliq zotga mushohada bilan jamlashi va vasvasayu mosuvo xayollarni xotiridan chiqarib tashlashi lozim; ana shunda dilida «zavq zikri» paydo bo'ladi⁵⁴.

Shayx, ayniqsa, Yassaviylikning «zikri samo'» usulini mahorat bilan ado etgan va undagi ruhiy-psixologik holatni «men samo'ga tursam, yeru osmon va

⁵⁰ «Маноқиб». — Б. 70.

⁵¹ «Маноқиб». — Б. 38.

⁵² Пайғамбар суннати — бу Пайғамбаримиз Мухаммад (с.а.в.)нинг йўл-йўриқлари, айтган сўзлари, хулқ-атворлари ва қилган ишларидир.

⁵³ Комилов Н. Тасаввуф. — Мовароуннахр — Ўзбекистон, 2009. — Б. 87–93.

⁵⁴ «Маноқиб». — Б. 44.



POLAND



POLAND

arshu kursini samo'da ko'raman» deya ifodalagan⁵⁵. Manbada keltirilishicha, qarilik va xastalik tufayli yurishi mushkul bo'lgan paytda ham u samo' vaqtida shamolday yengil harakat qilgan⁵⁶. «Samo'»ning lug'aviy ma'nosi «eshitish» bo'lib, Shayx uni «jonning qulog'i haqiqiy ma'noni irji'iy — qaytib kel — amridan eshitishi» deb izohlaydi; raqsu samo'ni nay va boshqa cholg'ular jo'rligida ado etgan⁵⁷.

Jahriy zikrning o'ziga xos shakllari haqida B. Bobojonov ham to'xtalib, zikrga yig'ilganlar doira bo'lib o'tirgani, sarhalqa Allohga hamd va Yassaviy hikmatlaridan ovoz chiqarib o'qigani, ovoz va ko'rinishiga ko'ra «zikri qo'y» yoki «zikri arra» kabi nomlar bilan atalganini yozadi⁵⁸. Shayx Xudoydodning o'zi ham tasavvuf yo'lida fano darajasiga yetgan zotlardan bo'lib, buni «Lamahot» muallifi Olim Shayx Azizon ham eslatib o'tadi⁵⁹.

Shayxning hukmdorlar bilan munosabati ham nazardan chetda qolmaydi. U davlat ishlariga faol aralashmagan bo'lsa-da, hukmdorlar unga murojaat qilib turgan. Shayboniixon bir necha bor uni dargohiga chaqirtirganida Shayx uning hashamatu johini ko'rib, «ularning hammasi nazarimda bitta somon cho'piga teng kelmadi» deb yozadi⁶⁰. Samarqand hokimi Abu Saidxon yuborgan ming tanga in'omni esa u shu kuniyoq faqir va gadolarga ehson qilib bergan. Bu voqealar Shayx merosida hokimiyatga ma'naviy mezon bilan qarash, dunyoviy hashamatdan ustun turish g'oyasi mujassam bo'lganini ko'rsatadi. Uning jismonan ham baquvvat, polvon kurashchi bo'lgani⁶¹ hamda Karmanadan Buxorogacha qish faslida yalangoyoq, Qiztog'i orqali piyoda safar qilib, tasavvuf bosqichlarini to'liq bosib o'tgani haqidagi rivoyatlar uning irodaviy salohiyatini namoyon etadi.

⁵⁵«Маноқиб». — Б. 86.

⁵⁶«Маноқиб». — Б. 87.

⁵⁷«Маноқиб». — Б. 87.

⁵⁸Бабаджанов Б. О видах зикра джахр у братств Центральной Азии // Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь / отв. ред. С. М. Прозоров. Вып. 4. — Москва: Восточная литература, 2003. — С. 25–27. Яна қаранг: Юлдашходжаев Х. Тасаввуфда зикр: Мухаммад Сиддиқнинг ўзига хос услуби // www.ziyounet.uz.

⁵⁹Ламаҳот. — Б. 84.

⁶¹Бўлдиева С. Нурота. Эссе. — Т.: Шарқ, 2003. — Б. 122.



Shayx Xudoydod tasavvufning Yassaviya-jahriya yo'nalishidagi g'oyaviy ta'limoti mohiyatini ham nazariy, ham amaliy jihatdan ochib berishga intilgan; bu uning o'zbek va fors tillaridagi she'rlari, hikmatli so'zlari, g'azallari hamda amaliy faoliyatida yaxlit ifodasini topgan. Boshqa islom mintaqalarida bo'lgani kabi Movarounnahrda ham tasavvuf tarbiyasi va uning to'rt bosqichi komil insonni voyaga yetkazish uslubi sifatida qo'llangan. Naqshbandiya va Yassaviya tariqatlari bu boradagi asosiy maktablar bo'lib, ular turkiy, tojik va boshqa xalqlarning o'zaro hurmatda yashashi, axloqan kamol topishi va ilm egallashida ilhom manbai vazifasini bajargan.

Xulosa va takliflar

Tahlil shuni ko'rsatadiki, Karmanalik allomalar merosi — xususan «Lamahot min nafahot ul-quds» va «Manoqibi Shayx Xudoydod Valiy» asarlari — o'rta asr Markaziy Osiyosi ma'naviy hayotini hamda tasavvufning tarbiya tizimi sifatidagi mohiyatini o'rganishda qiymatli ahamiyatga ega. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar shakllandi:

Birinchidan, «Manoqib»dagi ma'lumotlar mehnatkash xalqimiz XVI asrda ham dehqonchilik va paxtachilikda katta tajribaga ega bo'lganini, bu jarayonlarda tasavvuf vakillari faol qatnashganini, ekologiya va atrof-muhitni asrash esa ajdodlarimizdan meros qadriyat sifatida davom etayotganini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, Shayx Xudoydod Valiyning har qanday holatda muhtojlarga yordam berishni burch deb bilishi va jamiyat hayotida faol ishtiroki uning xalq orasidagi nufuzini oshirgan; bundan zamona hukmdorlari siyosiy maqsadlarda foydalanishga intilgan.

Uchinchidan, Shayxning ijtimoiy kelib chiqishi va diniy mansubligidan qat'i nazar barchaga teng munosabati millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikning tarixiy namunasi bo'lib, bugungi davlat siyosatining ma'naviy ildizlarini tashkil etadi.

To'rtinchidan, «Manoqibi Shayx Xudoydod Valiy» asari milliy mafkuramizning markaziy masalasi — komil inson tarbiyasiga zarur ma'rifiy va ma'naviy g'oyalarni o'zida jamlaydi. Shu bois ilk bor ilmiy muomalaga kiritilayotgan ushbu manbani chuqur tadqiq etish, uni o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etish maqsadga muvofiqdir.

Umuman, Karmanalik allomalar merosida ruhiy poklanish, halol mehnat, mehr-shafqat, ekologik ong, ilmu ma'rifat va hamjihatlik g'oyalari yaxlit ma'naviy tarbiya tizimini tashkil etadi. Bu meros bugungi ma'naviy yangilanish va komil inson tarbiyasi uchun nazariy hamda amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Усмон Турар. Тасаввуф тарихи. – Т.: Истиқлол, 1999. – 312 б.



POLAND



POLAND

2. Martin Lings. What is Sufism? – Lahore (Pakistan), 1999. – 134 p.
3. Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Мовароуннахр – Ўзбекистон, 2009. – 448 б.
4. О. Усмон. Бухорои шарифнинг етти пири. – Т.: Тош ДШИ нашриёти, 2003. – 96 б.
5. Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт / таржимон ва нашрга тайёрловчилар: И. Ҳаққул, А. Бектош. – Т.: Мовароуннахр, 2004. – 208 б.
6. Исҳоқова З. Шайх Нажмиддин Кубро. – Т.: Ўзбекистон, 2013. – 136 б.
7. Исҳоқова З. Тасаввуф таълимотида валийлик тушунчасининг диний-фалсафий талқини (Алишер Навоийнинг «Насойим ул-муҳаббат» асари асосида): фал. фан. ном. ... автореф. – Т., 2007. – 25 б.
8. Остонақулов И. Авлиёлар Султони, Туронлик валийлар. – Т.: Янги аср авлоди, 2004. – 255 б.
9. Остонақулов И. Муҳаммад Сиддиқ Рушдий «Тазкирату-л-авлиё» асарининг шарқ агиографик манбаларини ўрганишдаги аҳамияти: тарих фан. док. дисс. автореф. – Т., 2010. – 47 б.
10. Муҳаммад ал-Олим ас-Содиқ ал-Алавий (Олим Шайх Азизон). Ламаҳот мин нафаҳот ул-қудс. ЎзФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси. Инв. № 495, 2671. – 288 б.
11. Muhammad Olim Shayx Azizon. Lamahot min nafahot ul-quds: ilmiy-ommabop nashr. – Toshkent: «Fan» nashriyoti, 2006.
12. Шарафуддин Роқимий. Тарихи томм. – Т.: Маънавият, 1998. – 240 б.
13. Каримов Э. Э. Йассавийа и Ходжаган Накшбандийа: история действительная и вымышленная. – Т.: Ўзбекистон, 2000.
14. Муҳаммад Шариф ал-Ҳусайний ал-Алавий Бухорий. Ҳужжат уз-зокирин (1090/1679). ЎзФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси. Инв. № 2667.
15. Абу Тоҳирхожа Самарқандий. Самария (Самарқанд мазорлари зикри) / форс тилидан А. Сатторий таржимаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2009. – 256 б.
16. Ҳасанов Н. Муҳаммад Олим Сиддиқий ва унинг «Ламаҳот мин нафаҳотил-қудс» асари ҳақида // Имом ал-Бухорий сабоқлари. – 2006. – № 3. – Б. 196.
17. Персидские и таджикские рукописи Института народов Азии АН СССР / ред. О. Ф. Акимускин, В. В. Кушев и др. – Москва, 1964. – С. 282.
18. Миклухо-Маклай Н. Д. Описание таджикских и персидских рукописей. Вып. 2. Биографические сочинения. – М., 1961. – С. 133–136.
19. Исмоилов М. Шайх Худойдоднинг «Баҳр ал-улум» асари Марказий Осиёда тасаввуф тарихига оид муҳим манба (XVIII асрнинг иккинчи ярми): тарих фан. ном. дисс. автореф. – Т., 2006. – Б. 19.



POLAND

CURRENT APPROACHES AND NEW RESEARCH IN MODERN SCIENCES

International scientific-online conference



POLAND

20. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. II жилд. Илмий асарлар. – Т.: Маънавият, 2000. – Б. 36.
21. Улуғ авлиё Шайх Худойдод Вали (Маноқиб) / форс тилидан Сайфуддин Сайфуллоҳ таржимаси. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 96 б.
22. Бабаджанов Б. О видах зикра джахр у братств Центральной Азии // Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь / отв. ред. С. М. Прозоров. – Вып. 4. – Москва: Восточная литература, 2003. – С. 25–27.
23. Бўлдиева С. Нурота: эссе. – Т.: Шарқ, 2003. – Б. 122.